

Tovar belgisiga bo'lgan huquqning buzilishi

Nizoni sudgacha hal etish choralari samara bermagach, "Beirsdorf AG" kompaniyasi (bundan buyon matnda - Da'vogor deb yuritiladi) Toshkent shahar xo'jalik sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, "UzGerSov" MChJ shaklidagi qo'shma korxonasi (bundan buyon matnda - Javobgar deb yuritiladi) va "Ta'lat fayz baraka" MChJ (bundan buyon matnda - Qo'shimcha javobgar deb yuritiladi) zimmasiga "NIVEA" tovar belgisi bilan adashtirib yuboradigan darajada aynan o'xshash bo'lgan bir xildagi "NIVEAU" belgisi bilan tamg'alangan atir sovun va boshqa shu turdagi mahsulotlarni tayyorlash va sotishni ta'qiqlash yo'li bilan Da'vogarning "NIVEA" tovar belgisiga bo'lgan mutlaq huquqini buzishni darhol to'xtatish, tovarlar va ularning o'ramlaridan "NIVEAU" belgisini olib tashlash, uni bajarish imkoni bo'lmaganda mahsulotlarni yo'q qilish, shuningdek Javobgar zimmasiga o'z hisobidan "NIVEAU" belgisi ostida tayyorlangan tasvirlarni yo'q qilish hamda ommaviy axborot vositalari orqali "NIVEA" tovar belgisiga nisbatan bo'lgan mutlaq huquq Da'vogarga tegishli ekanligi to'g'risida ma'lumotni aks ettirgan holda yo'l qo'yilgan huquqbuzarlik haqida axborotni chop ettirish majburiyatlarini yuklashni so'ragan.

Birinchi instansiya sudning 2014 yil 15 yanvardagi hal qiluv qarori bilan da'vo talablari to'liq qanoatlatirilgan.

Apellyasiya instansiyasi sudining 2014 yil 27 martdagi qarori bilap hal qiluv qarori o'zgarishsiz qoldirilgan.

Kassasiya shikoyatida ish holatlari to'liq o'rganilmaganligi, jumladan sudlar tomonidan til qoidasi buzilganligi, da'vogar vakiliga berilgan ishonchnoma muhr bilan tasdiqlanmaganligi, iltimosnomalar e'tiborsiz qoldirilganligi, Agentlik vakili sud majlisida tazyiq orqali ko'rgazma berganligi bayon qilinib, xo'jalik sudining 2014 yil 15 yanvardagi hal qiluv qarori va 2014 yil 27 martdagi qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko'rish uchun Qashqadaryo viloyat sudiga yuborish so'ralgan.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, Da'vogar O'zbekiston Rsspublikasi Davlat patent idorasidan 1996 yil 9 oktyabrda Tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifining 03 toifasi tovarlarini, xususan "Tana parvarishi aa go'zallikni qo'llab-quvvatlash uchun vositalar"ni individuallashtirish maqsadida "NIVEA" tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazgan.

Da'vogarga 10 yil muddatga MGU 5107-sonli O'zbekiston Respublikasi guvohnomasi berilgai bo'lib uning muddati 2014 yil 17 noyabrga qadar uzaytirilgan. Da'vogarga tegishli "NIVEA" tovar belgisi, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari, shu jumladan sovun kabi Tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifining 03 toifasi tovarlarini individuallashtirish maqsadida ro'yxatga olingan.

Qonun 26-moddasining birinchi qismiga ko'ra tovar belgisi egasining tovar belgisidan foydalanish va uni tasarruf etish mutlaq huquqiga ega.

Tovar belgisiga doir mutlaq huquq guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan amal qiladi. Qo'shimcha javobgarga qarashli bo'lgan chakana savdo do'konida "NIVEAU" belgisi ostida tang'alangan atir sovun mahsuloti xarid qilingan bo'lib, mahsulotniig o'ramidan ko'rinishicha mahsulot Javobgar tomonidan ishlab chiqarilganligi ma'lum bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidai 2009 yil 29 iyulda 1988-son bilan ro'yxatga olingan "Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish Qoidalari" (bundan buyon matnda - Qoidalar deb yuritiladi)ning 106-bandiga ko'ra so'zli belgilarning o'xshashligini aniqlash uchun ular:

- so'zli belgilar bilan;
- tarkibiga so'zli belgilar kirgan jamlama belgilar bilan taqqoslanadi.

Shuningdek, ular Qoidalarning 107-109-bandlarida nazarda tutilgan tovushli, grafik va mazmunan o'xshashlik alomatlari asosida ham aqiqlanadi.

Agentlikning ish bo'yicha bergan yozma fikridan ko'rinishicha, nizoli belgilarning o'xshashligi bo'yicha tahlil quyidagicha:

"NI-VE-A"

"NI-VE-A-U"

Birinchi so'zda 5 ta bir xil harflar mos kelgan bo'lib, ikkinchi so'zda ham ushbu 5 ta bir xil harflar mos keladi, shuningdek u "U" harfi bilan to'ldirilgan.

Tovar belgilarini va tovar kelib chiqqan joy nomlarini muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organi sifatida Agentlik tomonidan "Javobgar ishlab chiqarayotgan parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari kabi Tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifining 03 toifasi tovarlariga taalluqli bo'lgan mahsulot uchun tovar belgisi sifatida ishlatilayotgan "NIVEAU" belgisi, Qonunning 26-moddasi talabiga ko'ra, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari kabi Tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifining 03 toifasi tovarlariga nisbatan Da'vogar egasi bo'lgan "NIVEA" tovar belgisi bilan adashtirib yuboradigan darajada aynan o'xshash bo'lgan bir xildagi tovar" degan fikr taqdim etilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, XPKning 95, 187-189-moddalarini qo'llab, sudlov hay'ati

QAROR QILDI:

"UzGerSov" MChJ shaklidagi qo'shma korxonaning kassasiya shikoyati qisman qanoatlantirilsin.

Toshkent shahar xo'jalik sudining 2014 yil 15 yanvardagi hal qiluv qarori va 2014 yil 27 martdagi qarori o'zgartirilsin.

Toshkent shahar xo'jalik sudining 2014 yil 15 yanvardagi hal qiluv qarori va 2014 yil 27 martdagi qarorining "Beirsdorf AG" kompaniyasining "UzGerSov" MChJ shaklidagi qo'shma korxonaga zimmasiga ommaviy axborot vositalari orqali "NIVEA" tovar belgisiga nisbatan bo'lgan mutlaq huquq "Beirsdorf AG" kompaniyasiga tegishli ekanligi to'g'risida ma'lumotni aks ettirgan holda yo'l

qo'yilgan huquqbuzarlik haqida axborot chop ettirish majburiyatini yuklash qismi bekor qilinsin.

Da'vogarning mazkur talabini qanoatlantirish rad etilsin.

Sudning 2014 yil 15 yanvardagi hal qiluv qarori va 2014 yil 27 martdagi qarorining qolgan qismi o'zgarishsiz qoldirilsin.